ONA TILI DARSLARIDA PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Andijon davlat pedagogika instituti
Magistratura bo‘limi Ta’lim-tarbiya nazariyasi va
Metodikasi(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi
talabasi Azimova Nodiraxon

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning ahamiyati hamda ulardan foydalanishning yangi usullari ko‘rsatib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: PIRLS, PISA, TIMMS, mantiqiy tafakkur, muammoli ta’lim, yangi innovatsion texnologiyalar.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda o‘zining fikr va mulohazalarini teran anglata oladigan, o‘rgangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z hayot faoliyatida kerakli o‘rinlarda qo‘llay oladigan, jamiyat uchun yaxshilikka hizmat qiluvchi kreativ fikrlovchi yoshlarga haddan ziyod talab kuchlidir. Bunday yoshlarni kamol toptirishda, albatta, davlatimizning ta’lim va tarbiya sohasiga qaratayotgan e’tibori va biz pedagog hodimlarning bu boradagi belgilangan vazifalar ijrosini mukammal tarzda ta’minlash muhim ahamiyatga egadir. Davlatimizning ta’lim sohasiga qaratgan e’tiborini biz O‘zbekiston PIRLS-2021 xalqaro baholash dasturida ishtirok etganligidan ko‘rishimiz mumkin.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu dunyoning turli davlatlarida boshlang’ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. PIRLS har besh yilda bir bora o‘tkaziladi. Xalqaro baholash dasturi PIRLSda bolalarning yoshi 10.5 yosh bo‘lishi

talab qilinadi, chunki bu xalqaro dasturda ishtirok etuvchi davlatlarda bolalarning maktabga qabul qilinish yoshi turlichadir. Bunga ko‘ra bizning mamalakatimizda o‘quvchilarni boshlang’ich sinfga qabul qilish yoshi 7 yosh ekanligini hisobga olib, 4-sinf o‘quvchilari bu xalqaro baholash dasturida ishtirok etadilar, shunda bolalar 10.8 - 10.9 yosh toifasida bo‘ladilar.

Ushbu dasturning asosiy mohiyati shundaki, bunda qatnashuvchi o‘quvchilarning qay darajada berilgan matnni tushunishi, undagi asosiy mazmunni, ilgari surilgan g’oyani anglab yetish va mana shu berilgan matnga tanqidiy yondasha olishidagi fikr mulohazalarni bildira olishini baholashdan iborat. Bilamizki, bu xalqaro baholash dasturi 2001-yildan buyon o‘tkazilib keladi. Unda qatnashgan davlatlar o‘quvchilarining PIRLS baholash tizimidagi olingan natijalarini o‘rganib chiqib ularning yutuq va kamchiliklariga e’tibor bergan holda biz o‘z mamlakatimiz o‘quvchilari orasida yuqori darajadagi o‘qish savodxonligini ko‘rsatishga yordam beruvchi omillarni ham o‘rganib chiqishimiz mumkin. Demak, bu omillarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

- Yuqori darajadagi o‘qish savodxonligiga ega bo‘lish uchun savodxonlik mashg’ulotlariga erta qatnashish, ya’ni maktabgacha ta’lim muassasasiga barcha bolalarni to‘liq jalb etish;
- O‘quv materiallari bilan mukammal ta’minlanish;
- Maktabda xavfsizlikni yaratish;
- O‘qishga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishni bola ruhiyatiga singdirish;

Yuqoridagi omillarni ta’lim tizimida mukammal joriy qilinishi o‘quvchilarda o‘z fikr va mulohazalarini erkin bayon etishiga yordam beradi.

Boshlang’ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida matnni tushunish va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi darslar. asosan, o‘qish va ona tili darslarida olib boriladi. O‘qituvchilar pedagogik faoliyati jarayonida past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga ham duch keladilar. Bunday o‘quvchilarni ham fikrlash qobiliyatini, savodxonlik darajasini

boshqa yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar qatoriga olib chiqish pedagog hodimning oldidagi birinchi vazifalaridan biridir.

Bunda pedagog hodim o‘z navbatida xalqaro baholash dasturi PIRLSdan o‘rinli foydalanishi mumkin. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga kichik, qisqa matnlarni uyga o‘qib kelish vazifasi topshiriladi. Masalan “Ikki do‘kondor bilan shunday bir voqea ro'y bergan ekan. Ularning do‘konlari yonma-yon turar va o'rtasi taxta bilan to'silgan ekan. Do'kondorlardan bir yog' sotsa, ikkinchisi atir-upa sotar ekan. Bir kuni kechqurun do'konni yopishdan oldin atir-upa sotadigan do'kondor taxta to'siqning tirqishidan qo'shnisining do'koniga

mo'ralabdi, qarasa, oltin dinorlarni sanab, qizil bir ro'molga tugayotganmish.

U ham ko'zi bilan qo'shnisi sanayotgan dinorlarni sanay boshlabdi: bir yuz oltmish beshta oltin tanga ekan. u qo'shnisining pullariga ega chiqishni istab ko'chaga chiqib qichqira boshlabdi:

- Yordam beringlar! Pullarimni o'g'irlab ketishdi!

Darhol mirshablar yetib kelishibdi.

- Kimdan shubhang bor? - deb so'rashibdi mirshablar undan.

- Bilmasam... Pullarimni sanab qizil ro'molga tukkanimdan keyin yog' sotadigan qo'shnimdan boshqa hech kim do'konimga kirmagan edi. Ro'molda bir yuz oltmish besh dinor bor edi, - debdi do'kondor. Mirshablar darhol yog' sotuvchining do'koniga kirib tintuv o'tkazishibdi va odamning ko'zi tushmaydigan bir burchakdan qizil ro'molga o'ralgan bir yuz oltmish beshta oltin dinorni topishibdi.

Yog' sotuvchi bu pullar o'zimniki, deb qasam ichibdi, mirshablar uning gapiga ishonmay, qo'llarini bog'lab zindonga tashlashibdi. Shunda Qozi kim haq, kim nohaq ekanligini aniqlash qozixona oldiga ko‘plab odamlarni to'plabdi

Ikkala do‘kondor shikoyatlarini aytgach, hokim bir tovoq qaynoq suv

bilan ro'molga tugilgan dinorlarni olib kelishni buyuribdi. U tangalarni tovoqning

ichiga solgan ekan, bir zumda yuzaga yog' tomchilari suzib chiqibdi.

- Tovoqni xalqqa ko'rsatinglar, - deb buyuribdi hokim, - bu pullar kimga tegishli ekanligini xalqning o'zi aytsin.

- Yog' sotuvchiniki! Yog' sotuvchiniki! - Bir ovozdan qichqirishibdi odamlar. Pullar darhol egasiga qaytarilibdi, uning ochko'z qo'shnisi bir umiga zindonga hukm qilinibdi". Ushbu matn orqali bolaga testlar tuzishimiz va bu orqali bolaning matnni qay darajada tushunganini bilib olishimiz mumkin. Testni qay tarzda tuzamiz:

1. Hikoya nima haqida tuzilgan?

a) O‘g’irlik, yolg’onchilik

b) Do‘stga hiyonat

c) Adolatsizlik, berahmlilik

2. Siz ham yolg’on gapirganmisiz?

a) Ha

b) Yo‘q

c) Ba’zan

3. Ushbu rasmlardan qay biri ushbu hikoyani tasvirlayapti

a) 1-rasm

b) 2-rasm

c) 3-rasm shunga o‘hshash testlar tuzishimiz mumkin.

Berilgan test javoblari asosida past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning har bir javoblariga izoh talab qilishimiz bilan ulardagi og’zaki nutqni va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishimiz mumkin.

Foydalanilgana adabiyotlar

1. Nurmanova, D. A. (2021). Neutralization of consonant opposition in anlaut of the uzbek language.

2. Azimov A.N. O‘zbek tilida diniy nutqiy janrlar tasnifi // Scientific journal of higher education and creative innovations Ajou sci. – 2025. – №1. – B. 50-53.

3. O‘G‘Li, A. A. N. (2022). Ruhiy zo‘riqish va uning talaffuz jarayoniga ta’siri. *Ta’lim fidoyilari*, *1*, 69-72.

4. Niyozidin o'g'li, A. A. Tez aytishlar fonetik trenajyor sifatida. *Scien ce and innovation International scientific*, *1*(7).

5. Akbarjon, A. (2021). The relationship between language and society. *International scientific research journal*, *9*.

6. Akbarjon, A. (2022). The importance of tongue twisters in the development of children's speech. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(02), 146-148.

7. Azimov, Akbarjon. "DINIY NUTQIY JANRLARNING O ‘ZIGA XOS GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI." *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar* 3.4 (2026): 702-705.

8. Niyozidin o‘g‘li, A. A. O ‘ZBEK TILIDA DINIY NUTQIY JANRLAR TASNIFI. *“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS” AJOU SCI*, 90.